XORAZM VILOYATI URGANCH SHAHAR HOKIMINING QARORI

2023 - yil 1 - iyun 225-12-180-Q/23 Urganch shahar hokimligi

“Urganch shahar hokimligi huzuridagi Jaloliddin Manguberdi xiyobonini ko‘kalamzorlashtirish, obodonlashtirish va saqlash departamenti” DUKning tashkiliy-huquqiy shaklini “Urganch shahar hokimligi huzuridagi Jaloliddin Manguberdi xiyobonini ko‘kalamzorlashtirish, obodonlashtirish va saqlash departamenti” davlat muassasasiga o‘zgartirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasininig 2023-yil 3-martda “Davlat muassasalari va davlat ishtirokidagi korxonalarni qayta tashkil etish va tugatishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 139-sonli qarori 1-ilovasi ijrosini ta’minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasininig 2023-yil 3-martda “Davlat muassasalari va davlat ishtirokidagi korxonalarni qayta tashkil etish va tugatishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 139-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. “Urganch shahar hokimligi huzuridagi Jaloliddin Manguberdi xiyobonini ko‘kalamzorlashtirish, obodonlashtirish va saqlash departamenti” DUKning tashkiliy-huquqiy shakli “Urganch shahar hokimligi huzuridagi Jaloliddin Manguberdi xiyobonini ko‘kalamzorlashtirish, obodonlashtirish va saqlash departamenti” davlat muassasasi etib o‘zgartirilsin.

Belgilansinki, “Urganch shahar hokimligi huzuridagi Jaloliddin Manguberdi xiyobonini ko‘kalamzorlashtirish, obodonlashtirish va saqlash departamenti” davlat muassasasi “Urganch shahar hokimligi huzuridagi Jaloliddin Manguberdi xiyobonini ko‘kalamzorlashtirish, obodonlashtirish va saqlash departamenti” DUKning huquq va majburiyatlari bo‘yicha huquqiy vorisi hisoblanadi.

3. “Urganch shahar hokimligi huzuridagi Jaloliddin Manguberdi xiyobonini ko‘kalamzorlashtirish, obodonlashtirish va saqlash departamenti” davlat muassasasining nizomi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. “Urganch shahar hokimligi huzuridagi Jaloliddin Manguberdi xiyobonini ko‘kalamzorlashtirish, obodonlashtirish va saqlash departamenti” DUK direktori A.Ibadullayev muassasa nizomining belgilangan tartibda Davlat xizmatlari markazidan ro‘yxatdan o‘tkazilishini ta’minlasin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari A.Elamonov zimmasiga yuklansin.

Urganch shahar hokimi **O.Xolboyev**

Urganch shahar hokimining
2023 yil 1 iyundagi
225-12-180-Q/23-son qaroriga
1-ilova

“Jaloliddin Manguberdi xiyobonini ko‘kalamzorlashtirish, obodonlashtirish va saqlash departamenti” davlat muassasasining

N I Z O M I

I. Umumiy qoidalar

1.1. **“Jaloliddin manguberdi xiyobonini ko‘kalamzorlashtirish, obodonlashtirish va saqlash departamenti” davlat muassasi** (keyingi o‘rinlarda – muassasa) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 3 martdagi 139-sonli qaroriga muvofiq tashkil etilgan. Muassasa **“Urganch shahar hokimligi huzuridagi Jaloliddin manguberdi xiyobonini ko‘kalamzorlashtirish, obodonlashtirish va saqlash departamenti”** davlat unitar korxonasining negizida tashkil etilgan bo‘lib, barcha huquq va majburiyatlari yuzasidan huquqiy vorisi hisoblanadi.

1.2. Muassasa Urganch shahar hokimining qaroriga binoan davlat muassasasi shaklidagi departament sifatida tashkil etiladi va shahar hokimining Xorazm viloyati mahalliy budjetidan mablag‘ bilan ta’minlanadigan muassasasi va mustaqil tarkibiy bo‘linmasi hisoblanadi.

1.3. Muassasa yuridik shaxs hisoblanadi, alohida mol-mulkka, mustaqil balansga, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan, o‘z nomi davlat tilida yozilgan dumaloq muhrga, shtamplar va blankaga, Urganch shahar G‘aznachilik bo‘limida shaxsiy hisob raqamiga ega bo‘ladi.

1.4. **“Jaloliddin manguberdi xiyobonini ko‘kalamzorlashtirish, obodonlashtirish va saqlash departamenti” davlat muassasasi** o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qaroriga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, xalq deputatlari shahar Kengashi qarorlariga, viloyat, shahar hokimining qarorlari va farmoyishlariga, shuningdek ushbu nizomga amal qiladi.

1.5. Mussasaning rasmiy to‘liq va qisqartirilgan nomi:

davlat tilida: **“Jaloliddin manguberdi xiyobonini ko‘kalamzorlashtirish, obodonlashtirish va saqlash departamenti” davlat muassasasi,** rus tilida: **uchrejdenie “Jaloliddin manguberdi xiyobonini ko‘kalamzorlashtirish, obodonlashtirish va saqlash departamenti”**

1.6. Muassasaning yuridik manzili: Xorazm viloyati, Urganch shaxar, Xonqa ko‘chasi, 101-uy.

1.7. Muassasaning muassisi: **Urganch shahar hokimligi** (keyingi o‘rinlarda - muassis).

1.8. Muassasa qonun hujjatlarda belgilangan tartibda o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni sotib olishi va amalga oshirishi, majburiyatlar olishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi , nizolarni hal etishda boshqa organlarda vakillik qilishi mumkin.

1.9. Muassasa muassisning roziligi bilan qonun xujjatlariga muvofiq yuridik shaxslarning qatnashishiga yo‘l qo‘yiladigan tijorat tashkilotlarida, shuningdek, notijorat tashkilotlarda qatnashchi (a’zo) bo‘lishi mumkin.

1.10. Muassasa boshqa davlat muassasasining muassisi bo‘lishi mumkin emas.

II. “Jaloliddin Manguberdi xiyobonini ko‘kalamzorlashtirish, obodonlashtirish va saqlash departamenti” davlat muassasasining vakolatlari

2.1. Amaldagi qonun hujjatlari doirasida muassasa quyidagi vakolatlarga ega hisoblanadi;

-mol-mulk bilan bog‘liq bo‘lgan shartnomalar bo‘yicha qonunga zid bo‘lgan hatti-harakatlar to‘g‘risida tegishli sud organlariga da’vo bilan murojaat qilish;

- ortiqcha foydalanilmagan yoki belgilanmagan maqsadda foydalanilayotgan mol-mulkni olib qo‘yish;

- korxonaga yetkazilgan zarar yuzasidan tashkilotlar va muassasalarga nisbatan tegishli sud organlariga da’vo kiritish;

- yillik ishlab chiqarish rejasini tasdiqlash va amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi hisobotini eshitish;

- foydalanish uchun berilgan davlat mol-mulkini nazorat qilish va begonalashtirishdan saqlash.

III. “Jaloliddin Manguberdi xiyobonini ko‘kalamzorlashtirish, obodonlashtirish va saqlash departamenti” davlat muassasasining mol-mulki

3.1. Muassasaning mol-mulki:

Muassis tomonidan muassasaga tezkor boshqarish huquqi bilan biriktirilgan mol-mulklar;

Qonun hujjatlariga zid bo‘lmagan manbalar hisobidan shakllantiradi.

3.2. Muassasa mol-mulki qiymati uning balansida aks ettirilgan.

3.3. Muassasa mol-mulki bo‘linmas hisoblanadi va muassasa xodimlari o‘rtasida taqsimlanishi mumkin emas.

3.4. Muassasa o‘z majburiyatlari bo‘yicha o‘ziga tegishli bo‘lgan mol-mulk bilan javob beradi.

3.5. Muassasa muassisning majburiyatlari bo‘yicha javob bermaydi.

IV. “Jaloliddin Manguberdi xiyobonini ko‘kalamzorlashtirish, obodonlashtirish va saqlash departamenti” davlat muassasasining vazifalari va funksiyalari

4.1. Shaharsozlik hamda sanitariya nomlari va qoidalariga muvofiq ob’ektlarni saqlash va ulardan foydalanish bo‘yicha ishlarni, shu jumladan quyidagi ishlarni o‘z vaqtida va sifatli bajarish muassasaning asosiy vazifalari hisoblanadi. Jaloliddin Manguberdi xiyoboni (keyingi o‘rinlarda — xiyobon) hududida amalga oshiriladigan obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish, sug‘orish tizimlarini ekspluatatsiya qilish hamda ulardan oqilona foydalanish ishlari texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga muvofiq o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini tashkil etish.

Jumladan;

- sun’iy sug‘orish tizimlari, nasos stansiyalari, quduqlar, qattiq qoplamalar, yo‘l, (yo‘lak)lar, ko‘chalarni yoritish vositalari va favvoralarning sanitariya va texnik jihatdan zarur holatda bo‘lishini ta’minlash;
- daraxtlar, butalar va gullarni saqlash hamda parvarish qilish, ularni zararkunandalar va kasalliklardan muhofaza qilish, hududni yanada ko‘kalamzorlashtirish ishlarini zamonaviy agrotexnik vositalardan foydalangan holda amalga oshirish;
- ignabargli va manzarali o‘simliklarning turlarini hamda yashil maysalarni saqlash bo‘yicha zarur choralarni ko‘rish;
- skverlar, xiyobonlar, yodgorlik majmualari va umumiy foydalaniladigan boshqa ko‘kalamzor zonalarni ko‘kalamzorlashtirish, dov-daraxtlarni parvarish qilish bo‘yicha agrotexnika tadbirlarini o‘tkazish, ularning zararkunandalari va kasalliklariga qarshi kurashish;
- yo‘l-ko‘prik xo‘jaligini(ko‘chalar, yo‘laklar qatnov qismining yo‘l qoplamasi, yer osti o‘tish joylari, ko‘priklar, transport chorrahalari va yo‘l o‘tkazgichlar, yon bordyurlar, suv chiqarib yuborish tarmoqlari va boshqa sun’iy inshootlar) saqlash, mukammal va joriy ta’mirlash;
- drenaj xo‘jaligini (vertikal va gorizantal quduqlar, ochiq va yopiq kollektorlar, sun’iy havzalar, yer osti

va yomg‘ir suvlarini haydaydigan nasos stansiyalari) va favvoralarni saqlash, mukammal, joriy ta’mirlash va ulardan foydalanish bo‘yicha boshqa ishlar;

- elektr energiyasini tejash maqsadida zamonaviy asbob-uskunalar va texnologiyalarni joriy etgan holda yo‘laklar, yer osti tunneli va tashqi yoritish tarmoqlarini saqlash, mukammal va joriy ta’mirlash hamda ulardan foydalanish bo‘yicha boshqa ishlar;
- mavsumiy talablarni hisobga olgan holda muassasa ob’ektlarini sanitariya jihatdan tozalash;
- yashil dov-daraxtlarni parvarish qilish (daraxt va butalarga shakl berish, yashil dov-daraxtlarni sug‘orish,o‘simliklar novdalariga suv purkash, tuproqning meliorativ holatini yaxshilash, begona o‘tlarga qarshi kurashish, o‘simliklarni kasalliklar va zararkurandalardan kimyoviy va biologik himoya qilish hamda boshqa agrotexnika tadbirlari va ishlarini amalga oshirish);
- muassasaning texnik holatini har yili ko‘zdan kechirish va baholash, ularning natijalari bo‘yicha kamchiliklar dalolatnomalarini hamda mukammal va joriy ta’mirlashning manzilli ro‘yxatlarini tuzish;
- loyiha-smeta hujjatlariga va belgilangan tartibda tasdiqlangan manzilli ro‘yxatlarga muvofiq muassasa ob’ektlarini mukammal va joriy ta’mirlashni amalga oshirish yuzasidan pudrat shartnomalari tuzish;
- loyiha-smeta hujjatlariga va belgilangan tartibda tasdiqlangan manzilli ro‘yxatlarga muvofiq o‘z kuchlari bilan hamda ixtisoslashgan pudrat tashkilotlari tomonidan bajariladigan obodonlashtirish ob’ektlarini mukammal va joriy ta’mirlashning bajarilishi yuzasidan nazoratni va texnik nazoratni amalga oshirish;
- obodonlashtirish ob’ektlarining muddatidan oldin eskirish va buzilishining oldini olish hamda ularni ish holatida saqlash bo‘yicha profilaktika tadbirlarini tashkil etish;
- bayramlarga, madaniy va siyosiy tadbirlarga, xorijiy mehmonlar va delegatsiyalarning kelishiga tayyorlash davrida maydonlarni bezatish;
- yoritqichlardagi elektr chiroqlarini, ishdan chiqqan nur taratgichlarni almashtirish, ko‘chalar, yo‘lkalar, hududlarning yoritilganlik darajasini o‘lchash, yoritqichlarni o‘z vaqtida yondirish va o‘chirish, tashqi yoritish elektr tarmoqlarini, uskunalar va inshootlarni ularning soz holatdaligi yuzasidan nazorat qilish va texnik ko‘rikdan o‘tkazish;
- Yig‘ishtirish, tozalash (supurish, sug‘orish, yuvish, changlarni, qorlarni, muzlarni yo‘qotish, irrigatsiya xo‘jaligi ob’ektlarini mexanik tozalash va ko‘chalarni tozalash-yuvish, (eskirgan) qurigan, qirqilgan daraxtlar, shox-shabbalar va barglarni yo‘qotish) ishlari kompleksini amalga oshirish;
- muassasa xodimlarining mehnat unumdorligini oshirish maqsadida zamonaviy texnologiyalarni avtomatlashtirish va kichik mexanizatsiya vositalarini joriy etish tadbirlarini ishlab chiqish;
- muassasaning ob’ektlarida tovar-moddiy boyliklar va elektr energiyasidan oqilona foydalanilishini, unga ajratilgan budjet mablag‘larini sarflashning samaradorligi va oshkoraligini, ularni hisobga olishni, shuningdek amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq moliyaviy hisobotlar topshirilishini ta’minlash;
- sun’iy inshootlarda ishlarni olib borishga texnik ruxsatnoma berish, shuningdek qurilayotgan sun’iy inshootlar va yer ostidan o‘tadigan umumiy muhandislik kolllektorlarining holati yuzasidan texnik nazoratni amalga oshirish;
- muassasa qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

V. “Jaloliddin Manguberdi xiyobonini ko‘kalamzorlashtirish, obodonlashtirish va saqlash departamenti” davlat muassasasining faoliyatini tashkil etish

5.1. Muassasaga Urganch shahar hokimi qaroriga muvofiq lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan direktor rahbarlik qiladi.

Direktor:

- yakkaboshchilik asosida muassasa faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi;
- muassasa vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha qarorlar qabul qiladi hamda muassasaga yuklangan vazifalarni bajaradi;

- Bosh muhandisning, boshqa mansabdor shaxslarning vakolatlarini muassasa faoliyatining alohida bo‘limlariga rahbarlik qilish yuzasidan javobgarligi darajasini belgilaydi;
- muassasa xodimlarining bajarishi uchun majburiy bo‘lgan buyruqlar chiqaradi va ko‘rsatmalar beradi;
- Shtatlar ro‘yxatini tasdiqlaydi, zarurat bo‘lganda, muassasa tuzilmasiga xodimlarning belgilangan umumiy soni va nazarda tutilgan mehnatga haq to‘lash fondi, shuningdek - muassasa xarajatlari smetasi doirasida o‘zgartirishlar kiritadi, keyinchalik moliya bo‘limida ro‘yxatdan o‘tkazadi;

Xodimlarni belgilangan tartibda ishga qabul qiladi, ular bilan mehnat shartnomalari tuzadi, mehnat shartnomalariga o‘zgartirishlar kiritadi va ularni to‘xtatadi;

muassasa nomidan ishonchnomasiz harakat qiladi va uning manfaatlarini himoya qiladi, o‘z vakolati doirasida shartnomalar tuzadi, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishonchnomalar beradi;

Direktor o‘z vakolati doirasida gul va boshqa manzarali ko‘chatlar yetishtirish uchun yer maydonlarini hamda qo‘shimcha texnika va texnik vositalarni ijaraga olish maqsadida shartnomalar tuzishi mumkin;

Qonun xujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

5.2. Direktor o‘z xuquqlarini amalga oshirishda va vazifalarni bajarishda muassasa manfatlarini ko‘zlab harakat qiladi hamda muassasaga yuklangan vazifalarning samarali bajarilishi, ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarning o‘z vaqtida to‘lanishi, mehnat huquqiy munosabatlarida kelib chiqadigan barcha talablarning qondirilishi, ishlab chiqarish faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan ehtiyojlarga pul mablag‘larining o‘tkazilishi, o‘zining hatti-harakati (harakatsizligi) bilan muassasa yetkazilgan zararlar, shu jumladan, Obodonlashtirish boshqarmasiga berilgan mol-mulk yo‘qolganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

VI. “Jaloliddin Manguberdi xiyobonini ko‘kalamzorlashtirish, obodonlashtirish va saqlash departamenti” davlat muassasasining moliya-xo‘jalik faoliyati

6.1. **Muassasa** faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari, har yili mahalliy budjetlar parametrlarida nazarda tutiladigan mablag‘lar;

Quyidagilardan:

- faoliyat sohasi bo‘yicha pulli asosda tovarlar (ishlar, xizmatlar) ni ishlab chiqarish va sotishdan;

- balansidagi transport vositalari va texnikalarni ijaraga berish va xizmatlar ko‘rsatishdan;

- vaqtinchalik foydalanilmayotgan binolar va davlatning boshqa mol-mulkini o‘zga tashkilotlarga ijaraga berishdan;

- yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ko‘rsatiladigan xayriya yordamidan olinadigan qo‘shimcha daromadlar;

Qonun hujjatlarida ta’qiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi.

6.2. Budjet mablag‘larini muassasaning obodonlashtirish ishlarini bajarish uchun taqsimlash O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlarining funksional klassifikatsiyasiga muvofiq, tasdiqlangan mahalliy budjet parametrlari doirasida amalga oshiriladi.

6.3. Hisobga olishni, statistik va moliyaviy hisobotlarni yuritish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

VII. Yakunlovchi qoidalar

7.1. Muassasa hisobot davri tugagandan keyin vakolatli organlarga qonun hujjatlarida belgilangan moliyaviy hisobotlarni va boshqa hujjatlarni taqdim etadi hamda hujjatlarning saqlanish va ularning belgilangan

tartibda davlat tomonidan saqlashga berilishi uchun javob beradi.

7.2. Muassasa faoliyatini nazorat qilish muassis va boshqa vakolatli organlar tomonidan, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

7.3. Muassasa qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Muassisning yoki Sudning qarori bilan qayta tashkil etilishi yoki tugatilishi mumkin.